

# **Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Diplomni olganligi to‘g‘risidagi ma’lumot” interaktiv xizmatining reglamenti**

## **1.Xizmat ta’rifi**

### **1.1. Xizmatning nomlanishi**

Qisqa nomi: “Diplom olganligi to‘g‘risidagi ma’lumot”.  
Kengaytirilgan nomi: Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti orqali xizmat ko‘rsatilayotgan “Diplom olganligi to‘g‘risidagi ma’lumot” interaktiv xizmati.

### **1.2. Xizmat natijasi**

Foydalanuvchi institutning interaktiv xizmatidan foydalanishidan so‘ng, unga tegishli “Diplomni olganligi to‘g‘risidagi ma’lumot” chiqariladi.

### **1.3. Xizmat ko‘rsatuvchi organlar**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

### **1.4. Interaktiv xizmatdan foydalanuvchilar**

Talabalar, ota-onalar, korxonalar, tashkilotlar va institut rahbariyati.

### **1.5. Bajarilish muddati**

“Diplomni olganligi to‘g‘risidagi ma’lumot” institut xodimlar bo‘limi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotga asosan 3 ish kunida amalga oshiriladi.

## **2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish**

### **2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi**

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday fuqaroga quyidagi ma’lumotlar taqdim etiladi:

1. O‘quv yo‘nalishi nomi, kursi, ta’lim mutaxassisligi.
2. Bitiruvchining F.I.S.H.

### **2.2. Batafsil ma’lumot olish**

Institut o‘quv-uslubiy bo‘limi orqali:  
Toshkent kimyo-texnologiya institutining rasmiy veb-sayti ([www.tkti.uz](http://www.tkti.uz)) ning interaktiv xizmatlar bo‘limidan interaktiv xizmatidan so‘ralgan ma’lumotlar to‘ldiriladi.

### **2.3. So‘rovnoma bo‘yicha ma’lumot olish**

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz ma’lumot olish mumkin.  
Elektron pochta orqali: dushanba-juma kunlari soat 09:00 dan 17:00 gacha.

### **2.4. Xizmat ko‘rsatish manzili hakida ma’lumot olish**

Toshkent shahar Shayxontohur tumani A.Navoiy ko‘chasi 32 uy

## **3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari**

### 3.1. Ish vaqtlari

Interaktiv xizmatdan Internet tarmog‘i orqali kecha-yu kunduz foydalanish mumkin.

## 4. Xizmat ko‘rsatish tartibi

### 4.1. Zarur bo‘lgan xujjatlar

Interaktiv xizmatdan foydalanganda foydalanuvchi tomonidan qo‘shimcha hujjat talab etilmaydi.

### 4.2. Xizmat to‘lovi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

### 4.3. Interaktiv xizmat ko‘rsatish bosqichlari

Diplom olganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni shakllantirish uchun xodimlar bo‘limi mas‘ul xodimlari tomonidan ma‘lumotlar shakllantiriladi. Xodimlar bo‘limi boshlig‘i tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, interaktiv xizmat ma‘lumotlar bazasiga 1 ish kuni mobaynida joylashtiriladi. Interaktiv davlat xizmati ma‘lumotlar bazasini texnik ta‘minoti ATM zimmasiga yuklatiladi.

### 4.4. Rad etish sabablari

Davlat xizmatini taqdim etishni rad etishda interaktiv xizmat ko‘rsatish dasturi o‘rnatilgan serverda profilaktik ishlar o‘tkazilayotgan bo‘lishi mumkin